

SHARQ NASRIDA TAZKIRANAVISLIKNING PAYDO BO'LISHI

Axmedova Kamola Ziyodulla qizi

O'zR FA O'zbek tili va adabiyoti va folklori institut

kamola.axmedova1993@gmail.com

+998978777534

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6739941>

Anonatsiya.

Ushbu maqolada adabiyotimizda tazkiralarning paydo bo'lishi va adabiyotdagi o'ziga xos o'rni xususida so'z boradi. Tazkirlarning turkiy adabiyotshunoslikdagi ilk kurtaklarini ochishda Alisher Navoiyning o'rni beqiyos. Shoirning badiiy mahorati, tazkiralarda aks etgan shoirlar, olimlar va avliyo va nabiylilik sifati xususida so'z boradi..

Tayanch so'zlar: Tazkira, avliyo, tasavuf, valiy

Ma'lumki, adabiyot paydo bo'libdi-ki, ilm ahli, shoirlar-u fuzalolar ham yetishib chiqqan. Sharq adabiyotida adabiyot vakillarining o'rni beqiyos. Qadimgi davrdan boshlab mana shu ilm ahlini o'rganish va ularning adabiyotda tutgan aniqlashda tazkirlarning ahamiyati katta. Xo'sh tazkiralalar qanday vujudga keldi?!

“Tazkira (arabcha تذكّر) “zikr” so'zidan olingan bo'lib, eslash, xotiraga keltirish” ma'nosida qo'llaniladi. Adabiyotshunoslik terminlari kitobida esa tazkira-yozuvchilarning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berilib, asarlaridan namunalar keltririlgan kitob”¹ [4,215] Tazkirachilik adabiyotshunoslikning muhim bir sohasi sifatida o'z tarixiga egadir. Dastavval tazkiranavislik arab adabiyotida paydo bo'la boshladi. Nodir manba sifatida Abu Mansur Abdumalik ibn muhammad as-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr” (“Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonalari”) va “Tatimmat al Yatima” nomli tazkiralari, Avfiy Buxoriyning “Lubobal-albob” XIII asr, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratush –shuaro” XV asr, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” va “Nasoyim ul-muhabbat” XV asrga oid qimmatli manbadir. Bundan keyingi o'rinlarda XVI asrga oid Hasan Xoja Nisoriyning “Muzakirul-ahbob”, Sultonmuhammad Noyi Mutribi Samarqandiy “Tazkiratush shuaro” va “Nusxayn zeboyi jahongir” tazkiralari ham e'tiborga loyiqdir.

Tazkiranavislik ilk manbalari biri sifatida- X asrda yozilagan “Yatimat ad dahr” va unga qo'shimcha manba sifatida yozgan “Tatimat al-Yatima” asarlaridir. Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad as-Salobiy 350-961-yili Nishopurda tug'ilgan (Shu tufayli ham unga Naysaburiy taxallusi ham yuritiladi). Nishopurda yaxshigina ma'lumot olib arab tili va adabiyoti, O'rta Osiyo va Eron adabiyotini ham o'zlashtirib, adib va shoirlar bilan ko'p bora yaqindan aloqada bo'lgan.

Ijodkorning “Saolibiy” deya taxallus olish ham uning savdogarchilik faoliyati bilan bog‘liq. “Abu Mansur as-Saolibiy tulki terisi oldi-soti bilan shug‘ullanib ko‘pgina o‘lkalarga boradi. Shu bilan birga shoirlar, olimlar bilan tanishib ularning suhbatidan bahramand bo‘ladi”². [3, 4]

Abu Mansur as-Saolibiyning Buxoraga va Xorazmga kelishi uning ilm ahliga yana-da yaqinlashtiradi. As-Saolibiyning nomini dunyoga tanitgan “Yatimat ad-dahr” tazkirasi bo‘lib asar asosan to‘rt qismdan iboratdir. Asardagi har qismdan qismi 10 ta bobdan tashkil topadi. Asarda shoir o‘zning uslubiy manerasini ijodkor sifatida qo‘llaydi. Tazirada zikr etilgan movarounnahr va xurosonlik shoirlar hayoti yoritiladi. Ushbu tazkiranini as-Saolibiy bir necha marotaba qayta tahlil etib X-XI asrda yana yangi shoirlarni kiritib boradi. Endilikda ushbu tazkiraga kirmay olgan shoirlarni adib boshqa tazkira yaratish uchun turtki vazifani o‘taydi.

As-Saolibiy “Yatimat ad-dahr” asarini tugatgandan keyin ham o‘z ustida ishlab turli shaharlarga sayohat qiladi. “Tatimmat al-Yatima” (Yagona durdonaga qo‘shimcha) asarida she‘riyat olamida tanilgan va o‘z o‘rniga ega bo‘lgan 209 shoir va ilm ahlini kiritadi. Shoir o‘zi ta’kidlaganidek: “Qo‘shimchasiz bu asar to‘liq hisoblanmagan bo‘lar edi. “Yatimad ad-dahr” dagi uslub va mahorat “Tatimmat al-Yatima”da ham o‘z jilosini ko‘rsatadi”³ [3,5]. Shoir ushbu asarni 1038-yillar davomida yozgan bo‘lish ehtimoli yuqori. Chunki asarda aynan 2-marotaba 424 hijriy yil zikr etiladi (1-ж., 114, 145-бетлар). Shoirning vafot etgan yili esa 424-429-yillar orasidadir. Xulosa qilsak, asar mana shu yillar davomida yozilgan “Tatimmat al-Yatima” asarida ijodkor uchun asosiy obyekt bu shoirning o‘zi ko‘rgan shoirlar edi. Asarda zikr etilgan ijodkorlarning she‘rlarini As-Saolibiy shoirlarning o‘zidan yoki munshidlaridan yozib olgan. Mana shundan Movarounnahr va Xurosondan yetishib chiqqan shoirlar 104 nafari edi.

“Tatimmat al-Yatima” asari ham “Yatimad ad-dahr” singari 4 qimdan iborat:

“Birinchi qism. Shom (Suriya) va al-Jazira xalqdan chiqqan fozil ahli 48 ta shoir haqida ma’lumot beradi.

Ikkinchi qism. Iroq ahlining 32 ta fozillari va ularning she‘rlaridan namunalar keltiradi.

Uchunchi qism. Ray, Hamadon, Isfahon va Jabal viloyatlardagi shoirlar va ularga qo‘shni viloyatlar Tabariston, Jabal fozillari haqida, ja’mi 25 shoir va ularning asaridan na’mina keltiradi.

To‘rtinchi qismda G‘aznaviylar davrida yashagan Xuroson, Movoraunnahrlik 104 nafar shoir va ularning she‘rlaridan namuna keltiradi”⁴. [3,8]

“Tatimmat al-Yatima” tazkirasi asarida birorta shoirning ijodiga oid asarlari yoki hayotiga oid ma’lumot to‘liq keltirilmagan. Abu Mansur as-Saolibiy

“Yatimat ad-dahr” tazkirasini yozgan davri 994-1000 yillarga to‘g‘ri keldi. Bu paytda shoir Nishopurda istiqomat qilgan. Asarni birinchi qismi tugatilganda so‘ng shoir yana ko‘plab joylarga sayohat qilib, ko‘pgina shoirlar va adiblar bilan tanishadi. Shu boisdan, endilikda asarni qayta to‘ldirish zaruriyati paydo bo‘ladi. O‘z tazkiralarda birorta shoirga nisbatan mukammal baho berishi mumkin emas. Chunki ijodkor “Yatimmat ad-dahr”dek ushbu tazkira ko‘p vaqt sarflanmagan. “Tatimmat al-Yatima” tazkirasidan joyolgan she‘rlar qasida, g‘azal, vaf va hajvlardan tashkil topgan.[3,5]. Asar 1011-1017 yillarda yozilib, yangi boblardan tashkil topai. Abu Mansur as-Saolibiy asarni Xorazm shohi Ma‘munga taqdim etadi.

XV asr madaniy muhiti Alisher Navoiy kengroqqa yaqin. Ungacha bo‘lgan davrlarda adabiyotshunoslikka xos bulgan mahsus ilmiy janrlarning soni va qamrovi ham keng bo‘lmagan. Sharq adabiyotida Arab va fors adabiyotining ta’sirida turkcha tazkiralari uchun maktab edi. Tazkirachilik jarayoni o‘z-o‘zidan tarixiy davrlar mobaynida adabiyotda o‘zing mazmunan turlarini biroz kengaytirgan. Ularning eng ko‘p tarqalgan turlari quyidagilar kiradi:

1. Shoirlar tazkisasi.
2. Valiylar tazkisasi.
3. Dabirlar (kotib va hattotlar)
4. Adiblar yoki olimlar tazkisasi.

Adabiyotshunoslar tomonidan bularning nisbatan ko‘p tarqalgani shoirlar va valiylar tazkisasi deya e’tirof qiladi.

Tazkiraning ushbu eng ko‘p tarqalgan turiga turk adabiyotida Alisher Navoiy asos solgan edi. Alisher Navoiyning “Majolis-un nafa’is” va “Nasoyim ul-muhabbat” tazkiralari shular jumlasidandir. Turkcha tazkirachilikka xos bo‘lgan xususiyatlar, albatta, boshqa adabiyot vakillari uchun ham o‘z tazkirachilik an’analarini davom ettirishiga asos vazifasini o‘tadi. Abdurauf Fitrat ijodiy uslub haqida quyidagi mulohazalarni bildiradi: “Go‘zal san’atlarda har millatning o‘ziga mahsus uslubi bor. Navoiy o‘zining “Majolis un-nafa’is” kitobida ba’zi shoirlarning tarjimai holini yozgandan keyin “turkona” yozadir, “turkona she’rlari bor” deb ko‘p paydo bo‘ladi, bu “turk uslubida yozadir” demakdan boshqa narsa emas”5.[6,21]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. XVII jild. Nasoyim ul-muhabbat. –T.: “Fan”, 2001
- 2 Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. XVI jild. Majolis un - nafa’is. –T.: “Fan”, 1997.
- 3 Abu Mansur as-Saolibiy “Tatimmat al-Yatima” Toshkent, “Fan”-1990.

4. H.Homidiy, Sh.Abdullayeva.“Adabiyotshunoslik teminlari lug‘ati” Toshkent,
“O‘qituvchi”-1970
- 5.Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. – T.: “Fan”, 1978.
6. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. 1995 -Т.Фан –Б.21.
7. Internet ma ‘lumotlari